



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

birinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;

ikkinchidan, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;

uchinchidan, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;

to‘rtinchidan, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;

beshinchidan, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;

oltinchidan, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;

yettinchidan, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;

sakkizinchidan, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;

to‘qqizinchidan, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	



YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTIONAL MEKANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI



Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori,
iqtisod fanlari doktori, professor.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o'tishni iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlashning nazariy, institutsional va amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Davlatning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalari, yashil investitsiyalar, fiskal imtiyozlar, yashil obligatsiyalar, kreditlash, Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasi, ekologik audit hamda monitoring, hisobot va verifikatsiya tizimlarining o'zaro bog'liqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy tartibga solish, yashil moliya, yashil obligatsiyalar, yashil taksonomiya, fiskal rag'bat, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik audit, MRV, yashil investitsiya.

Аннотация. В статье исследованы теоретические, институциональные и практические механизмы экономической и правовой поддержки перехода к зелёной экономике. Рассмотрена взаимосвязь регулирующих и стимулирующих функций государства, зелёных инвестиций, фискальных льгот, зелёных облигаций, кредитования, Национальной таксономии «зелёной» экономики, экологического аудита, а также систем мониторинга, отчётности и верификации.

Ключевые слова: зелёная экономика, экономическая поддержка, правовое регулирование, зелёные финансы, зелёные облигации, зелёная таксономия, фискальное стимулирование, возобновляемая энергетика, экологический аудит, MRV, зелёные инвестиции.

Abstract. This article examines the theoretical, institutional, and practical mechanisms of economic and legal support for the transition to a green economy. It highlights the interrelationship between the regulatory and incentive functions of the state, green investments, fiscal incentives, green bonds, lending, the National Green Economy Taxonomy, environmental auditing, and monitoring, reporting, and verification systems.

Keywords: green economy, economic support, legal regulation, green finance, green bonds, green taxonomy, fiscal incentives, renewable energy, environmental audit, MRV, green investment.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar cheklanganligi va ekologik xatarlarning kuchayishi iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni resurslardan samarali foydalanish, kam uglerodli texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar, ijtimoiy inklyuzivlik va tabiiy kapitalni saqlash bilan uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida shakllandi [1–3].

Yashil transformatsiya faqat bozor kuchlari hisobiga avtomatik yuz bermaydi. Ekologik tashqi effektlarning bozor narxlarida to'liq aks etmasligi, yashil texnologiyalarning yuqori boshlang'ich kapital sig'imi, uzoq qaytim muddati va axborot assimetriyasi davlatning huquqiy va iqtisodiy aralashuvini talab qiladi. Shu bois normativ



talablar, soliq va bojxona rag'batlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari, yashil obligatsiyalar va ekologik audit bir-birini to'ldiruvchi institutlar sifatida ishlashi kerak.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishning strategik asoslari 2019-yilda 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasining tasdiqlanishi bilan mustahkamlandi. Mazkur hujjatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.¹

2022-yilda yashil iqtisodiyotga o'tish islohotlari samaradorligini oshirish bo'yicha yangi maqsadli ko'rsatkichlar va harakatlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu hujjatlar yashil o'sishni umumiy siyosiy konsepsiyadan o'lchanadigan ko'rsatkichlar, tarmoq vazifalari va aniq ijro mexanizmlariga o'tkazdi.²

Maqolaning maqsadi O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlash institutlarini tizimli tahlil qilish, mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish hamda davlat ko'magi, yashil moliyalashtirish, taksonomiya, MRV va auditni yagona natijaga yo'naltirilgan mexanizmga birlashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotning konseptual asoslari UNEP, OECD va Jahon banki tadqiqotlarida keng yoritilgan. UNEP yashil iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash bilan bir vaqtda ekologik xatarlar hamda resurs tanqisligini kamaytiradigan iqtisodiy model sifatida talqin qiladi [1]. OECD yashil o'sishda tabiiy kapitalni iqtisodiy qarorlarga kiritish, ekologik tashqi ta'sirlarga narx belgilash va innovatsiyalarni rag'batlantirishga urg'u beradi [2]. Jahon banki esa yashil o'sishning samaradorlik, barqarorlik va inklyuzivlik mezonlarini birgalikda ko'rib chiqadi [3].

O'zbekiston ilmiy maktabida A.V. Vaxabov va Sh.X. Xajibakievning “Yashil iqtisodiyot” darsligi yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, yashil o'sish indikatorlari, ekologik siyosat, energiya samaradorligi va moliyalashtirish instrumentlarini tizimli yoritgan muhim manbalardan biridir [4]. Mualliflar yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlari bilan bog'lash orqali uning davlat siyosati, investitsiya va innovatsiyalar uchun metodologik asoslarini ochib bergan.

A.V. Vaxabov va N. Nazarov yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilib, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, iqlim o'zgarishiga moslashuv, suvdan foydalanish samaradorligi hamda moliyaviy va nomoliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'zaro bog'liq yo'nalishlar sifatida ko'rsatgan [5]. Mazkur yondashuv yashil transformatsiyada davlatning strategik rejalashtirish va rag'batlantirish funksiyasi alohida ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy va innovatsion yondashuv zarurligini asoslab, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muqobil energetika va texnologik yangilanishning uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu qarash yashil iqtisodiyotni faqat ekologik dastur emas, balki fan, innovatsiya, inson kapitali va ishlab chiqarish modernizatsiyasini birlashtiruvchi iqtisodiy transformatsiya sifatida ko'rish imkonini beradi.

S.R. Topildiyev O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilib, muqobil energetikani rivojlantirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va sanoatni dekarbonizatsiya qilishning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi [7]. Uning tadqiqotida texnologik modernizatsiyani rag'batlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

E.I. Nosirov yashil moliya bozorining alohida instrumentlari — yashil obligatsiyalar hamda ESG omillari asosidagi investitsiyalarni tadqiq qilgan. Muallif yashil obligatsiyalarni ekologik yo'naltirilgan loyihalarga uzoq muddatli kapital jalb etish vositasi sifatida baholab, mablag'lardan maqsadli foydalanish va investor uchun shaffof hisobotning ahamiyatini ko'rsatadi [8; 9].

O.X. Hamidov va D.Sh. Yavmutov yashil iqtisodiyotga o'tishni barqaror rivojlanishning zarur sharti sifatida baholaydi. Ularning tadqiqotida uglevodorod resurslariga qaramlik, yuqori energiyatalablik, muqobil energiya, xalqaro tajriba va yashil investitsiyalarni faollashtirish masalalari o'zaro bog'langan holda yoritilgan [10].

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning strategik, energetik, moliyaviy va innovatsion jihatlarini yetarlicha o'rganilgan. Biroq iqtisodiy rag'batlantirish instrumentlarining huquqiy mexanizmlar bilan qanday yagona boshqaruv sikliga birlashtirilishi, davlat ko'magining taksonomiya va o'lchanadigan ekologik natijalar bilan bog'lanishi bo'yicha kompleks yondashuvni yanada rivojlantirish zarur.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ: <https://lex.uz/docs/4539502>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ: <https://lex.uz/docs/6303230>.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, institutsional tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, kontent-tahlil, funksional tasniflash va ilmiy umumlashtirish usullariga asoslandi. Nazariy baza sifatida yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, yashil moliya va barqaror rivojlanish bo'yicha xalqaro tashkilotlar hamda O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlari qo'llanildi.

Normativ-huquqiy tahlilda yashil iqtisodiyot strategiyasi, 2030-yilgacha yashil o'sish maqsadlari, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik audit, yashil iqtisodiyotni boshqarish tizimi va Milliy yashil taksonomiyaga oid hujjatlar funksional guruhlariga ajratildi. Iqtisodiy instrumentlar esa fiskal rag'batlar, kredit-kafolat mexanizmlari, obligatsiyalar, davlat xaridlari va investitsion qo'llab-quvvatlash shakllari bo'yicha tizimlashtirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi yashil iqtisodiyotni iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlashni alohida instrumentlar yig'indisi sifatida emas, balki "strategik maqsad → huquqiy norma → tasniflash → iqtisodiy rag'bat → moliyalashtirish → MRV → audit → natijadorlikni baholash" ketma-ketligidagi yagona institutsional sikl sifatida asoslashdan iborat.

Maqola matnini tayyorlash va manbalarni tizimlashtirishning yordamchi bosqichlarida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi; normativ rekvizitlar, ilmiy manbalar va asosiy xulosalar ishonchli manbalar bilan qayta tekshirildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda muallifning tahliliy umumlashtirishi asosiy o'rin tutdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning huquqiy arxitekturasini bosqichma-bosqich shakllandi. PQ-4477-son qaror strategik yo'nalishlarni belgilagan bo'lsa, PQ-436-son qaror ushbu strategiyani 2030-yilgacha bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar, tarmoq vazifalari va harakatlar rejasi bilan boyitdi. Keyingi bosqichda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarishning tashkiliy mexanizmi joriy etildi. Ushbu mexanizm davlat boshqaruvi organlari va davlat ulushi yuqori bo'lgan xo'jalik birlashmalarida yashil iqtisodiyot masalalari bo'yicha institutsional mas'uliyatni aniqlashtirdi.³

2023-yilda Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasining tasdiqlanishi yashil faoliyat va loyihalarni bir xil mezonlar asosida tasniflash imkonini yaratdi. Taksonomiya yashil kreditlar, obligatsiyalar, davlat moliyaviy ko'magi va investitsiya loyihalarida "yashil" maqomni aniqlash uchun huquqiy mezon vazifasini bajaradi.⁴

1-jadval. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlashning asosiy institutlari

Yil	Hujjat/institut	Asosiy vazifasi	Iqtisodiy-huquqiy ahamiyati
2019	PQ-4477	2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi	Strategik maqsadlar va moliyaviy/nomoliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini belgiladi
2019	O'RQ-539	Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish	Investitsiya va rag'batlantirishning huquqiy bazasini yaratdi
2021	O'RQ-678	Ekologik audit instituti	Ekologik muvofiqlik va mustaqil baholash mexanizmini yaratdi
2022	PQ-436	2030-yilgacha yashil o'sish dasturi	Maqsadli ko'rsatkichlar va tarmoq vazifalarini belgiladi
2023	VMQ-514	Yashil iqtisodiyotga o'tishni boshqarish tizimi	Institutsional mas'uliyat va koordinatsiyani kuchaytirdi
2023	VMQ-561	Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi	Yashil loyihalarni tasniflash va moliyalashtirish mezonini yaratdi

Manba: muallif tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida tuzilgan.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 514-son "Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ: <https://lex.uz/docs/6622631>.

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ: <https://lex.uz/docs/6644013>.

**Qayta tiklanuvchi energetikani iqtisodiy rag'batlantirishning huquqiy asoslari**

Qayta tiklanuvchi energiya sohasi iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarning o'zaro ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni ushbu sohada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyoz va preferensiyalar, tarmoqqa ulanish, investitsiya va texnologik rivojlanishning asosiy huquqiy shartlarini belgilaydi.⁵

Iqtisodiy nuqtai nazardan, ushbu mexanizm yashil texnologiyani yuqori boshlang'ich xarajatlarini pasaytirish va investor uchun risk-rentabellik nisbatini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq imtiyozlarning samaradorligi ularning hajmidan ko'ra natijaga yo'naltirilganligiga bog'liq. Shu bois kelgusida soliq, subsidiya yoki kafolatlarining bir qismini CO₂e kamayishi, energiya yoki suv tejaliishi kabi o'lchanadigan ekologik natijalar bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

Milliy yashil taksonomiya va yashil moliya

Yashil moliya bozorida asosiy muammolardan biri — qaysi loyiha haqiqatan "yashil" ekanini aniqlashdir. Taksonomiya ushbu muammoni huquqiy mezonlar orqali hal qiladi. U resurs samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, yashil transport, suvdan foydalanish, chiqindilarni boshqarish va boshqa yo'nalishlarda faoliyat turlarini tasniflash imkonini beradi.

Taksonomiyani davlat subsidiyalari, imtiyozli kreditlar, kafolatlar va yashil obligatsiyalar bilan bog'lash uchta ijobiy natija beradi: birinchidan, davlat mablag'larining ekologik yo'naltirilganligi oshadi; ikkinchidan, investorlar va banklar uchun yagona mezon paydo bo'ladi; uchinchidan, "greenwashing" — ekologik ta'siri cheklangan faoliyatni asossiz ravishda yashil deb ko'rsatish xavfi kamayadi.

E.I. Nosirov tadqiqotlarida yashil obligatsiyalar va ESG investitsiyalarining moliya bozoridagi ahamiyati ochib berilgan [8; 9]. Ushbu ilmiy yondashuvni amaliy siyosatga tatbiq etish yashil moliya instrumentlari uchun aniq taksonomiya, mablag'larni maqsadli taqsimlash va ta'sir hisobotini majburiy element sifatida rivojlantirishni talab qiladi.

2-jadval. Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning asosiy iqtisodiy instrumentlari

Instrument	Iqtisodiy vazifasi	Huquqiy tayanch	Kutiladigan natija
Soliq va bojxona rag'batlari	Yashil texnologiya kapital xarajatini pasaytirish	Sohaviy qonunchilik va soliq normalari	Investitsiya faolligini oshirish
Subsidiyalar va grantlar	Ijtimoiy-ekologik foydasi yuqori loyihalarni qo'llash	Davlat dasturlari va budjet mexanizmlari	Texnologiyani tez joriy qilish
Imtiyozli kredit va kafolat	Kapital qiymati va kredit riskini pasaytirish	Bank va davlat moliyaviy ko'magi	KOB va yirik loyihalar investitsiyasini kengaytirish
Yashil obligatsiyalar	Uzoq muddatli kapitalni safarbar qilish	Qimmatli qog'ozlar qoidolari va taksonomiya	Energiya, suv, transport, chiqindi loyihalarini moliyalashtirish
Yashil taksonomiya	Yashil loyihani aniq tasniflash	VMQ-561	Shaffoflik va greenwashing riskini kamaytirish
MRV va ekologik audit	Natijani o'lchash va tasdiqlash	PQ-436, O'RQ-678	Hisobdorlik va investor ishonchini kuchaytirish

Manba: muallif tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida tuzilgan.

MRV va ekologik audit — iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning ishonch mexanizmi

Yashil loyihani moliyalashtirishda natijani ishonchli o'lchash zarur. Monitoring, reporting and verification (MRV) tizimi energiya tejaliishi, issiqxona gazlari kamayishi, suv va xomashyo samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni muntazam qayd etish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar davlat ko'magi, kredit shartlari va yashil obligatsiyalarning impact reporting tizimi bilan bog'langanda iqtisodiy rag'bat natijaga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni xo'jalik faoliyatining ekologik talablarga muvofiqligini mustaqil baholash institutini belgilaydi. Yashil moliya nuqtai nazaridan ekologik auditni faqat huquqiy muvofiqlik vositasi emas, balki investor, bank va davlat uchun ekologik ma'lumotning ishonchliligini tasdiqlovchi institut sifatida rivojlantirish zarur.⁶

5 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ: <https://lex.uz/docs/4346831>.

6 O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O'RQ-678-son "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, LexUZ.



Iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarning integratsiyalashgan modeli

O'tkazilgan tahlil iqtisodiy va huquqiy instrumentlarning mustaqil qo'llanishi cheklangan natija berishini ko'rsatadi. Masalan, yashil kredit ajratish uchun loyiha yashil deb tan olinishi kerak; buning uchun taksonomiya zarur. Taksonomiyaga muvofiqlikni tasdiqlash uchun ekologik ko'rsatkichlar kerak; buning uchun MRV zarur. Mablag'lardan maqsadli foydalanish va natijalarni tekshirish uchun esa audit talab etiladi.

Shu asosda quyidagi integratsiyalashgan model taklif etiladi: strategik maqsad → huquqiy norma → yashil taksonomiya → iqtisodiy rag'bat va moliyalashtirish → MRV → ekologik va moliyaviy audit → natijadorlikni baholash → siyosat va instrumentlarni takomillashtirish.

3-jadval. Taklif etilayotgan integratsiyalashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm

Bosqich	Asosiy vosita	Asosiy savol	Natija
1. Strategik maqsad	Strategiya va tarmoq dasturlari	Qaysi natijaga erishiladi?	Aniq maqsad va KPI
2. Huquqiy norma	Qonun, qaror, standart	Qaysi talablar majburiy?	Huquqiy aniqlik
3. Tasniflash	Yashil taksonomiya	Qaysi faoliyat yashil?	Yagona mezon
4. Rag'bat va moliya	Soliq, subsidiya, kredit, kafolat, obligatsiya	Qanday qilib loyiha jozibador qilinadi?	Kapital safarbarligi
5. Monitoring	MRV	Real ekologik natija qancha?	O'lchanadigan ta'sir
6. Audit	Ekologik va moliyaviy audit	Ma'lumot ishonchlimi?	Shaffoflik va javobgarlik
7. Baholash	Cost-effectiveness va KPI tahlili	Davlat ko'magi qanday samara berdi?	Samaradorlik bahosi

Manba: muallif tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida tuzilgan.

Tahlil O'zbekistonda yashil iqtisodiyot uchun asosiy institutsional elementlar shakllanganini ko'rsatadi: strategik maqsadlar, tarmoq vazifalari, qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha huquqiy baza, yashil iqtisodiyotni boshqarish tizimi, milliy taksonomiya, ekologik audit hamda yashil moliyalashtirish instrumentlari mavjud. Keyingi bosqichda asosiy vazifa yangi hujjatlar sonini oshirish emas, balki mavjud instrumentlarning funksional integratsiyasini chuqurlashtirishdan iborat.

Mahalliy olimlarning qarashlari ham ushbu xulosani qo'llab-quvvatlaydi. A.V. Vaxabov va N. Nazarov yashil iqtisodiyotni moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlashga urg'u bersa [5], G.Q. Abdurahmonova ilmiy-innovatsion yondashuvning rolini ajratib ko'rsatadi [6]. S.R. Topildiyev energiya tejankor texnologiyalar va muqobil energiya zaruratini asoslaydi [7], E.I. Nosirov yashil moliya va ESG instrumentlarini investitsiya qarorlari bilan bog'laydi [8; 9], O.X. Hamidov va D.Sh. Yavmutov esa yashil investitsiyalar va energetik transformatsiyaning barqaror rivojlanishdagi rolga e'tibor qaratadi [10].

Shu nuqtai nazardan davlat ko'magining natijadorligi ajratilgan mablag' miqdori bilan emas, balki har bir so'mga to'g'ri keladigan ekologik va iqtisodiy natija bilan baholanishi kerak. Masalan, subsidiya yoki imtiyozli kredit uchun "so'm/tonna CO₂e kamayishi", "so'm/kVt-soat energiya tejalishi" yoki "so'm/m³ suv tejalishi" kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Yashil davlat xaridlari va yashil budjetlashtirish ham integratsiyani kuchaytiradigan vositalardir. Davlat xaridlarida mahsulotning faqat boshlang'ich narxini emas, balki hayotiy sikl xarajati, energiya sarfi, qayta ishlash imkoniyati va ekologik mezonlarini hisobga olish bozor talabini yashil mahsulotlar foydasiga o'zgartirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot yashil iqtisodiyotni iqtisodiy va huquqiy qo'llab-quvvatlashning samarali modeli strategik maqsadlar, huquqiy qoidalar, iqtisodiy rag'batlar, yashil moliyalashtirish, taksonomiya, MRV va auditning yagona natijaga yo'naltirilgan tizimda ishlashiga bog'liq ekanini ko'rsatdi.

1. Davlat tomonidan beriladigan yashil subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, kafolatlar va boshqa moliyaviy ko'maklarni Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasiga muvofiqlik bilan majburiy bog'lash.

2. Yashil davlat ko'magini bosqichma-bosqich natijaga asoslangan moliyalashtirishga o'tkazish; ko'mak hajmini energiya, suv, resurs tejalishi va CO₂e kamayishi kabi o'lchanadigan ekologik natijalar bilan bog'lash.



3. Tijorat banklari uchun taksonomiyaga asoslangan minimal yashil kredit standartlarini ishlab chiqish va kredit portfelida yashil loyihalarni alohida identifikatsiya qilish.

4. Korporativ yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish uchun mablag'larni taqsimlash (allocation) va ekologik ta'sir (impact) hisobotining yagona talablarini joriy etish.

5. Yirik yashil loyihalarda ekologik auditni moliyaviy audit bilan uyg'unlashtirish va audit natijalarini investor hamda davlat ko'magini taqdim etuvchi organlar uchun ochiq indikatorlarga aylantirish.

6. MRV tizimini raqamlashtirish va ekologik ko'rsatkichlarni kredit, subsidiya, kafolat va davlat investitsiya dasturlarining monitoringi bilan bog'lash.

7. Yashil davlat xaridlarida hayotiy sikl xarajati, energiya samaradorligi, ekologik sertifikat va qayta ishlash mezonlarini bosqichma-bosqich kiritish.

8. Yashil budjetlashtirishni kengaytirib, davlat budjeti xarajatlarini yashil taksonomiya bo'yicha tasniflash hamda yillik yashil budjet va ta'sir hisobotini shakllantirish.

9. Kichik va o'rta biznes uchun "yashil loyiha — texnik maslahat — kredit — kafolat — MRV — qayta moliyalashtirish" zanjiridan iborat yagona moliyaviy yo'lak yaratish.

10. Yashil iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlashda iqtisodchi, moliyachi, yurist, muhandis va ekologlarning kesishuvchi kompetensiyalarini rivojlantirish, "yashil ko'nikmalar"ni kasbiy standartlarga kiritish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning keyingi bosqichi iqtisodiy va huquqiy instrumentlarni ko'paytirishdan ko'ra, ularni yagona natijadorlik konturiga birlashtirish bilan bog'liq. Bunday yondashuv davlat mablag'larining samaradorligini, xususiylarining ishonchligini va yashil transformatsiyaning institutsional barqarorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. — Nairobi: UNEP, 2011.
2. OECD. Towards Green Growth. — Paris: OECD Publishing, 2011. DOI: 10.1787/9789264111318-en.
3. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. — Washington, DC: World Bank, 2012.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: darslik. — Toshkent: Universitet, 2020. — 262 b.
5. Vaxabov A., Nazarov N. Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — 2(1). DOI: 10.55439/GED/vol1_iss1/a762.
6. Topildiyev S.R. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — 2(1). DOI: 10.55439/GED/vol1_iss1/a758.
7. Nosirov E.I. "Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2023. — 1(10). — B. 40–45. DOI: 10.55439/GED/vol1_iss10/a8.
8. Nosirov E. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ESG omillar asosida investitsiya kiritishning o'rni va ahamiyati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2023. — 1(11–12). DOI: 10.55439/GED/vol1_iss11-12/a198.
9. Hamidov O.X., Yavmutov D.Sh. Barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2025. — 3. DOI: 10.5281/zenodo.16687557.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — LexUZ.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. — LexUZ.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 514-son "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — LexUZ.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son "Milliy 'yashil' iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. — LexUZ.
14. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. — LexUZ.
15. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-martdagi O'RQ-678-son "Ekologik audit to'g'risida"gi Qonuni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
16. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. — Washington, DC: World Bank, 2023.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

